XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 - yil 31 - dekabr VI-57-266-8-109-K/22 Angor tuman hokimligi

Angor tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, Surxondaryo viloyati Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 29-dekabrdagi 22-04-10/6156-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Angor tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 79,4 mlrd.so‘m, xarajatlari 173,3 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 93,9 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun tuman budjetidan budjet mablag‘larni taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjeti bilan viloyat mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Angor tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetiga viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, viloyat budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman

mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining tuman budjeti zaxira jamg‘armasi, tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetni tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Angor tumani tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2023-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qonunga asosan 2023-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olingadigan yer solig‘i;

benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga huquq uchun yig‘imlar;

qounuchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari);

avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘imlar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

b) Viloyatning viloyat budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (dromadlar) va ajratmalar;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi o‘tkaziladi.

v) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

aylanmadan olinadigan soliq;

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi inobatga olinib, ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli

budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (O.Mamayusupov), tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (J.Usmonov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Kuchkarov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov) tumandagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Umarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (E.Mengliyev) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14.Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (X.Tog‘ayev) tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

15. Tuman irrigatsiya bo‘limi (Sh.Eshaliyev) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

16. Tuman ichki ishlar bo‘limi, tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi, majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (X.Tog‘ayev), tuman Adliya bo‘limi (G‘.Tilovqobilov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

17. Tuman hokimligiga:

tuman budjet jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashi hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

18. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Mazkur qaror “Angor yog‘dusi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklansin.

21. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **SH.B.ABDULLAYEV**

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy byudjet daromadlarining

2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**79,411,305.0**
1	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	6,075,000.0
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,510,000.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18,160,000.0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0.0
5	Aksiz solig‘i, jami	32,023,305.0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	9,488,000.0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,315,000.0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,395,000.0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2,153,000.0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10,035,000.0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	35,000.0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	830,000.0
12	Davlat boji	0.0
13	Jarimalar	0.0
14	Ijara to‘lovi	200,000.0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0.0
16	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum	200,000.0
17	Yig‘imlar	2,480,000.0
II.	**Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar**	**93,880,268.0**
Daromadlar hammasi		**173,291,573.0**

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Angor tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘ ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**173,291,573.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**173,291,573.0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**7,451,903.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7,451,903.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**6,570,693.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6,570,693.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Maxalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi**	**588,788.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	588,788.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Sog‘liqni saqlash muassasalari**	**63,767,343.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63,767,343.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Madaniyat bo‘limi boshqaruv apparti**	**196,574.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	196,574.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Yoshlar ishlari agentligi xarajatlari**	**3,600,701.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3,600,701.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**468,674.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	468,674.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Irrigatsiya bo‘limi**	**994,631.0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	994,631.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Veterinariya boshqarmasining tashkilotlariga**	**1,486,736.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,486,736.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Madaniyat markazlari xarajatlari**	**555,003.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	555,003.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Musika va san’at maktabi xarajatlari**	**1,854,340.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,854,340.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Sport boshqarmasi tashkilotlariga**	**2,197,141.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2,197,141.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Moliya bo‘limi**	**1,523,065.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,523,065.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Maxallabay ishlash markazlari**	**3,531,171.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3,531,171.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10,030,581.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10,030,581.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Davlat hokimiyat organlari**	**2,685,477.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2,685,477.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Oila va xotin qizlar bo‘limi**	**2,382,851.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2,382,851.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Mehnat bosh boshqarmasining tashkilotlari**	**778,389.0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	778,389.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Ijtimoiy moslashuv markazi**	**93,630.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	93,630.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Ijtimoiy nafaqalar**	**48,003,778.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	48,003,778.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	**Fermer xo’jaliklari buxgalteriya markazi**	**136,544.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	136,544.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlariga**	**2,784,127.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2,784,127.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Xalq deputatlari kengashi kotibiyati**	**221,341.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	221,341.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Xalq qabulxonasi**	**7,251.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7,251.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Axborot kutubxona markazi**	**500,393.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	500,393.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1,070,558.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,070,558.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**8,174,131.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8,174,131.0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28	**Zaxira jamg‘armasi**	**1,635,759.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1,635,759.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga 2023-yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz xisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to‘lovlari
1	Angor tumani	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga
4-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining 2023-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**79 411 305**	**173 291 573**
Angor tumani	79 411 305	173 291 573

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga
5-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Angor tumani	93 880 268

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-266-8-109-K/22-son qaroriga
6-ilova

Angor tuman mahalliy budjetida 2023-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Angor tumani	721200